


O'zbekiston Prezidenti Xitoy tashqi ishlar vazirini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT NIZMATH



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT NIZMATH



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-iyul kuni mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi a'zosi, tashqi ishlar vaziri Van Ini qabul qildi.

O'zbekiston va Xitoy o'rta sidagi do'stlik va har tomonloma strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Vazir Van I davlatimiz rahbariga XXR Raisi Si Szinpinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. O'zbekistonning Markaziy va Janubiy Osiyo bog'liqligini rivojlantirish borasidagi tashabbusi yuksak baholandi va qo'llab-quvvatlandi, Toshkent shahrida o'tkaziladigan konferensiya muvaffaqiyatli bo'lishiga ishonch bildirildi.

Uchrashuvda oliv darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, jumladan, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik, madaniy-gumanitar sohalar va ko'p qirrali hamkorlikning boshqa yo'naliishlarida qo'shma dastur va loyihalarni ilgari surish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Pandemiyaga qarshi kurashda yaqindan hamkorlikni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Xalqaro kun tartibi, shu jumladan Afg'onistonndagi vaziyat yuzasidan fikr almashildi.

Manba